

**D.B. O'roqova**  
**Buxoro davlat universiteti**  
**Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrasи**  
*i.f.f.d., dotsent.,*  
*d.b.o`roqova @buxdu.uz*

## TURIZM SOHASIDAGI INNOVATSION FAOLIYATNI BAHOLASH ALGORITMI

**Annotasiya.** Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi global o'zgarishlar va innovatsion texnologiyalar ta'sirida tez rivojlanmoqda. Turistik xizmatlarning sifatini oshirish va yangi mahsulotlar yaratish innovatsion faoliyatni talab qiladi. Shunday ekan, turizm sohasidagi innovatsion faoliyatni baholash algoritmini ishlab chiqish ushbu sohaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada turizmda innovatsion faoliyatni baholashning muhim jihatlari, mezonlari va algoritm ishlab chiqish metodologiyasi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** innovatsion texnologiyalar, institutsiyal, texnologik yangilanishlar, turistik salohiyat, barqaror, drayver, raqobatbardoshlik

**Abstract.** In the modern economy, the tourism industry is rapidly developing under the influence of global changes and innovative technologies. Improving the quality of tourism services and creating new products require innovative activities. Thus, the development of an algorithm for assessing innovative activities in the tourism sector will help improve the efficiency of this industry. The article analyzes important aspects, criteria and methods for developing an algorithm for assessing innovative activities in the tourism sector.

**Keywords:** innovative technologies, institutional, technological innovations, tourism potential, sustainable, driver, competitiveness

**Аннотация.** В современной экономике туристическая отрасль стремительно развивается под влиянием глобальных изменений и инновационных технологий. Повышение качества туристических услуг и создание новых продуктов требуют инновационной деятельности. Таким образом, разработка алгоритма оценки инновационной деятельности в сфере туризма будет способствовать повышению эффективности данной отрасли. В статье анализируются важные аспекты, критерии и методика разработки алгоритма оценки инновационной деятельности в сфере туризма.

**Ключевые слова:** инновационные технологии, институциональные, технологические инновации, туристический потенциал, устойчивый, движущая сила, конкурентоспособность

### Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi jadal rivojlanmoqda va ushbu yo'nalishda davlat tomonidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 martdagি PQ-109-son qarori bilan tasdiqlangan 2024-yilda strategik yo'nalishlardagi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasining 68-69-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida Strategik islohotlar agentligi va Turizm qo'mitasi tomonidan turizm sohasida axborot taqdim etish tizimini takomillashtirish hamda yangi imkoniyatlarni yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Innovatsion yondashuvlar asosida turizmning yangi turlarini rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. 2025-yildan boshlab geologiya, sanoat va ilmiy turizm, harbiy turizm kabi yo'nalishlarga ruxsat berilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu yangi sayyohlik mahsulotlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, aeroport, temir yo'l vokzallari va avtovokzallarda interaktiv axborot tizimlarini joriy etish, "Milliy sayohat" mobil ilovasini ishga tushirish va turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Xalqaro

tajribalar shuni ko'rsatadiki, turistik navigatsiya va yo'naltiruvchi tizimlarni rivojlantirish sayyoqlik oqimini oshirish va mamlakat jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Rossiya kabi davlatlarda bunday tizimlarning joriy qilinishi turizmni rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shgan. Masalan, Dubayning "MyDubai Experience" tizimi turistlarga diqqatga sazovor joylarning fotosuratlari va videolarini ko'rish, virtual sayohat qilish, ma'lumot olish va sayohat rejasini tuzish imkonini beradi. Yaponiyada esa turistik belgilar tizimi aeroportlar, mehmonxonalar va diqqatga sazovor joylarda o'rnatilgan bo'lib, 4 tilda xizmat ko'rsatadi.

O'zbekiston tajribasida esa Toshkent viloyati misolida so'nggi besh yilda turizm infratuzilmasining jadal rivojlanayotgani kuzatilmoqda. Mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari va xostellar soni keskin ortib, turizm xizmatlari eksporti 30 million dollardan 72 million dollarga yetgan. Bundan tashqari, turistik obyektlarga olib boruvchi avtomobil yo'llari yangilanib, turoperatorlar soni sezilarli darajada oshgan. Turizm sohasi rivojini davom ettirish uchun davlat tomonidan uzoq muddatli strategik rejalgarda ehtiyoj mavjud. Xususan, "Oltin halqa" turizm konsepsiysi doirasida hududlarning turistik salohiyati to'liq tahlil qilinishi, maqsad – tadbir – natija mantiqiy zanjirining to'liq ishlashi ta'minlanishi lozim. Ushbu maqolada turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar, xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitida turizmning rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot asosiy rivojlanish omillaridan biri hisoblanadi. Turli mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotlarning shakllanishi va rivojlanishi ularning iqtisodiy darajasi, mavjud resurslari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish strategiyalari hamda fan va biznesning integratsiyalashuv darajasiga bog'liq. Muvaffaqiyatli innovatsion iqtisodiyotlar odatda ilmiy-tadqiqotga (R&D) katta sarmoya kiritish, vechur kapital tizimining rivojlanishi, startaplarni qo'llab-quvvatlash va texnologik ekotizimni yaratish bilan ajralib turadi.

Innovatsion iqtisodiyot modellari har bir davlatning o'ziga xos imkoniyatlari va strategiyalariga qarab farqlanadi. AQSh kabi ilg'or davlatlar kuchli universitetlar, vechur kapital tizimi va texnologik gigantlarning faoliyati orqali innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi. Germaniya sanoat innovatsiyalariga e'tibor qaratib, "Sanoat 4.0" dasturlari va klaster tizimi orqali texnologik taraqqiyotni rag'batlantiradi. Xitoy esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yirik investitsiyalar va texnologik gigantlar orqali sun'iy intellekt, 5G va biotexnologiyalar sohalarida yetakchi pozitsiyaga chiqishga intilmoqda. Janubiy Koreya yirik konglomeratlar va davlat dasturlarining integratsiyalashuvi natijasida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirmoqda. Isroi esa startap davlat sifatida vechur kapital tizimi, ilmiy-tadqiqot sarmoyalari va IT sektori orqali muvaffaqiyat qozonmoqda. Innovatsion iqtisodiyotlarni rivojlantirishda davlatning roli juda muhim bo'lib, moliyaviy ko'mak, soliq imtiyozlari, ilmiy-tadqiqot grantlari va ta'lim sohasiga yo'naltirilgan sarmoyalalar orqali yangi texnologiyalarni joriy qilishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, klasterlash strategiyasi va fan hamda biznes o'rtasidagi hamkorlik innovatsion ekotizimni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada turli mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish modellarini o'rganish, ularning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish va muvaffaqiyat omillarini aniqlash maqsad qilingan. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyotlarni shakllantirish jarayonida duch kelinadigan asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari ham muhokama qilinadi. Bu tadqiqot natijalari turli davlatlarning innovatsion siyosatlarini shakllantirishda hamda kelajakda samarali strategiyalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Innovatsion faoliyat – bu yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan jarayon. Turizmda innovatsion faoliyat quyidagi yo'nalishlarda rivojlanadi: Raqamli texnologiyalar turizm sohasida xizmatlarni optimallashtirish va mijoz tajribasini yaxshilashda muhim rol o'ynamoqda. Dinis va boshqalar (2019) tadqiqotida onlayn qidiruv ma'lumotlari tahlil qilinib, turistik yo'nalishlarga bo'lgan talabni baholash uchun kompozit indikatorlar ishlab chiqilgan. Bu yondashuv onlayn bronlash va raqamli marketing strategiyalarini optimallashtirish imkonini beradi.

### Adabiyotlar sharhi

Turizm sohasi so‘nggi yillarda innovatsion texnologiyalar va raqamli transformatsiyalar bilan sezilarli darajada rivojlanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt (AI), big data, onlayn bronlash tizimlari, AR/VR texnologiyalari va raqamli xizmatlar turizm sanoatining samaradorligini oshirishga, mijozlarga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etishga va umuman raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yordam bermoqda.

Muallif(lar)	Yil	Tadqiqot yo‘nalishi		Asosiy natijalar	
Divisekera va Nguyen	2018/	Turizmda innovatsion omillar		AI va big data texnologiyalari raqobatbardoshlikni oshiradi	
Hall va Williams	2019	Turizmda innovatsion texnologiyalar integratsiyasi	Barqaror turizm va innovatsiyalar	Onlayn bronlash tizimlari va smart xizmatlar turizmga katta ta’sir ko‘rsatadi	Barqaror turizmni innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarur
Benur Bramwell	2015	AR/VR texnologiya-larining turizmga ta’siri	Turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish	Virtual ekskursiyalar va interaktiv gidlar mijozlar tajribasini boyitadi	Ekologik xavfsiz turistik mahsulotlar muhimligi ta’kidlanadi
Hauschmidt	2005	Texnologik transformatsiya va innovatsiyalar		Elektron xizmatlarning o‘sish dinamikasini tahlil qiladi	
Page va Schirr	2008	Mobil ilovalar va onlayn bronlash tizimlari	Ekologik tamoyillar va yangi xizmatlar	AI va big data mijoz ehtiyojlarini oldindan bashorat qilish imkonini beradi	Yangi xizmatlarni yaratishda ekologik yondashuvlar muhim
Biemans boshqalar	2015/ 2016	Xizmatlarni moderni-zatsiya qilish	Ekologik innovatsiyalar va barqaror turizm	Raqamli texnologiyalar orqali xizmatlarning samaradorligi oshiriladi	Ekologik innovatsiyalarni ilgari surish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan
Steven va Dimitriadis	2004	AI chat-botlar va tavsiyalar tizimi	Barqaror turizm va o‘rganish jarayonlari	Sun’iy intellekt xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga yordam beradi	Barqaror turizm strategiyalari tashkilotlarning innovatsiyalarni o‘zlashtirish qobiliyatiga bog‘liq
Menor boshqalar	2002	manfaatdor tomonlarga foyda keltiradigan barqaror yechimlarni ishlab chiqish uchun kompaniyalar mijozlar va jamiyat bilan hamkorlik qiladigan qiymatni birgalikda yaratishga e’tibor qaratadilar.		Innovatsion xizmatlar ekspluatatsiya va eksploratsiya strategiyalari orqali samaradorligini oshiradi	

Alam va Perry	2002	Mijozga yo‘naltirilgan xizmatlar	Mijoz ehtiyojlarini oldindan bilish va moslashtirish muhimligini ta’kidlaydi
Kitsios va Kamariotou	2019	Xizmatlarni rivojlantirish va raqamli transformatsiya	Innovatsiyalar turizmda xizmatlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi
Pikkemaat va boshqalar	2006	Innovatsion texnologiyalar va turizm	AR/VR texnologiyalari mijozlarni jalb qilishda katta ahamiyatga ega
Rothwell	1994	Beshlik innovatsiya modeli	Texnologik o‘zgarishlar xizmat ko‘rsatish sifatiga ta’sir qiladi
Wonglimpiyarat va Yuberk	2005	Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni tarqatish	AI texnologiyalari mijozga moslashtirilgan xizmatlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi
Trott	2017	Innovatsion boshqaruv va yangi mahsulotlar	AI va big data texnologiyalari xizmatlarni optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi

Jadvalda turizm sohasi va xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish maqsadida tadqiqot olib brogan olimlar fikrlari quyidagicha bayyon etilgan. Divisekera va Nguyen (2018) ta’kidlaganidek, AI va big data texnologiyalari turizmning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi<sup>1</sup>. Hall va Williams (2019) esa onlayn bronlash tizimlari va aqli xizmatlar turizm sohasiga katta ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlayd<sup>2</sup>i. Benur va Bramwell (2015) esa AR/VR texnologiyalarining mijozlar tajribasini boyitishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Bunday texnologiyalar virtual ekskursiyalar va interaktiv gidlar orqali sayohatchilarga realistik tajribalar taqdim etadi. Mobil ilovalar va raqamli xizmatlarning o‘sishi ham sohaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda<sup>3</sup>. Page va Schirr (2008) tadqiqotiga ko‘ra, AI va big data mijoz ehtiyojlarini oldindan bashorat qilish va ularga moslashtirilgan xizmatlarni taklif etish imkonini beradi<sup>4</sup>. Biemans va boshqalar (2016) esa raqamli texnologiyalar xizmatlarning samaradorligini oshirishda muhim ekanini ko‘rsatadi. AI chat-botlar va tavsiyalar tizimi mijozlarga individual xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi, bu haqda Steven va Dimitriadis<sup>5</sup> (2004) o‘z tadqiqotlarida qayd etishgan.

Shuningdek, innovatsion boshqaruv va yangi xizmatlar rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Menor va boshqalar (2002) innovatsion xizmatlar ekspluatatsiya va eksploratsiya strategiyalari orqali samaradorligini oshirishini ta’kidlagan<sup>6</sup>. Alam va Perry (2002) esa mijoz ehtiyojlarini oldindan bilish va moslashtirish xizmatlar sifatini oshirishini ko‘rsatib o‘tgan. Kitsios va Kamariotou (2019) esa xizmatlarni rivojlantirish va raqamli transformatsiya orqali turizmning samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi. Turizmda ekologik innovatsiyalar va barqarorlik ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dinis va boshqalar (2019) ekoturizmga bo‘lgan talabni baholash uchun indikatorlar ishlab chiqqan<sup>7</sup>. Hall va Williams (2019) barqaror turizmni

<sup>1</sup> Divisekera, S.; Nguyen, K. Determinants of innovation in tourism evidence from Australia. Tour. Manag. 2018, 67, 157–167, .

<sup>2</sup> Hall, M.C.; Williams, A.M. Tourism and Innovation; Routledge: Abingdon, UK, 2019.

<sup>3</sup> Benur, A.M.; Bramwell, B. Tourism product development and product diversification in destinations. Tour. Manag. 2015, 50, 2013–2224.

<sup>4</sup> Page, A.L.; Schirr, G.R. Growth and development of a body of knowledge: 16 years of new product development research, 1989–2004. J. Prod. Innov. Manag. 2008, 25, 233–248.

<sup>5</sup> Steven, E.; Dimitriadis, S. New service development through the lens of organisational learning: Evidence from longitudinal case studies. J. Bus. Res. 2004, 57, 1074–1084.

<sup>6,7</sup> Menor, LJ; Tatikonda, MV; Sampson, SE Развитие новых услуг: области эксплуатации и разведки. J. Oper. Manag. 2002, 20, 135–157.

<sup>7</sup> Dinis, M.G.F.; Costa, C.M.M.; Pacheco, O.M.R. Composite Indicators for measuring the online search interest by a tourist destination. In Big Data and Innovation in Tourism, Travel, and Hospitality Managerial Approaches, Techniques, and Applications; Sigala, M., Rahimi, R., Thelwall, R., Eds.; Springer: Berlin, Germany, 2019; pp. 1–19

innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlagan<sup>1</sup>. Benur va Bramwell (2015) esa ekologik xavfsiz turistik mahsulotlarning muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Page va Schirr (2008) yangi xizmatlarni yaratishda ekologik yondashuvlarni qo‘llash muhimligini qayd etgan<sup>2</sup>. Biemans va boshqalar (2016) esa ekologik innovatsiyalarni ilgari surish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan<sup>3</sup>. Umuman olganda, turizm sohasida texnologik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. AI, big data, AR/VR texnologiyalari va ekologik innovatsiyalar xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, mijoz ehtiyojlarini oldindan bashorat qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minalash uchun muhim vosita hisoblanadi.

### **Metodologiya**

Iqtisodiy transformatsiya jarayonida institutsional o‘zgarishlar muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy institutlarda tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu o‘zgarishlar mamlakatning umumiyligi iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, bozor mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Amerikalik iqtisodchi Douglass North ta’kidlaganidek, institutsional o‘zgarishlar asta-sekin sodir bo‘lib, jamiyatdagi individual xatti-harakatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, innovatsion rivojlanish va texnologik taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan institutsional muhitning yetarlicha shakllanmagani rivojlanish sur’atlarini sekinlashtirishi mumkin.

O‘zbekistonda modernizatsiya jarayonlari asosan texnologik islohotlarga asoslangan bo‘lib, iqtisodiy rivojlanishning texnologik va innovatsion jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, institutsional islohotlar nisbatan cheklangan doirada amalga oshirilib kelmoqda. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun esa nafaqat texnologik yangilanishlar, balki institutsional muhitning ham rivojlanishi talab etiladi. Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan tadbirdorlik subyektlari va keng jamoatchilikni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bozor mexanizmlarining samarali ishlashi yuqorida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda, mahalliy darajada ham institutsional o‘zgarishlarning to‘liq shakllanishiga bog‘liqdir.

Innovatsion muhitni rivojlantirish uchun davlat tomonidan iqtisodiy va institutsional islohotlarni jadallashtirish, innovatsion mafkurani shakllantirish va tadbirdorlik madaniyatini rivojlantirish zarur. Mamlakat innovatsion salohiyatini baholashda ilmiy-tadqiqot muassasalari, tadqiqotchilar soni, texnologik ishlanmalar, ro‘yxatdan o‘tgan patentlar, ilmiy darajalarga ega mutaxassislar soni va innovatsiyalarga ajratilayotgan mablag‘lar asosiy mezonlardan biri sifatida e’tiborga olinishi lozim.

Mamlakatning bilim yaratish salohiyati bevosita patent va innovatsiyalar soni bilan bog‘liq. Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va yangi texnologiyalarni joriy etish mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, oliy ta’lim muassasalari va innovatsion markazlarga investitsiyalar jalb qilish davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Umuman olganda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish faqat texnologik taraqqiyot bilan emas, balki institutsional islohotlar bilan ham bog‘liqdir. Innovatsion rivojlanish uchun ta’lim tizimini kuchaytirish, ilmiy tadqiqotlarga e’tibor qaratish va zamonaviy patent tizimini rivojlantirish zarur. Faqat shundagina mamlakat global innovatsion makonda o‘z o‘rnini mustahkamlashi va iqtisodiy taraqqiyotga erishishi mumkin.

Ushbu innovatsion yondashuvlar O‘zbekistonga global turizm bozorida yuqori raqobatbardoshlikni ta’minalashga xizmat qilmoqda.

<sup>1</sup> Hall, M.C.; Williams, A.M. Tourism and Innovation; Routledge: Abingdon, UK, 2019.

<sup>2</sup> Page, A.L.; Schirr, G.R. Growth and development of a body of knowledge: 16 years of new product development research, 1989–2004. J. Prod. Innov. Manag. 2008, 25, 233–248.

<sup>3</sup> Biemans, W.G.; Griffin, A.; Moenaert, R.K. New service development: How the field developed, its current status and recommendations to move the field forward. J. Prod. Innov. Manag. 2016, 33, 382–397.

Innovatsion faoliyatni baholash algoritmi bu-turizm tarmoqlari va sohalarning maqsadlari va funksiyalarini tahlil qiladi. Tahlillar chuqur sintez qilib turizm tarmoqlarida qo'llanilan innovatsiyalarni baholalash hamda iqtisodiy samaradorlikga tasirini o'rganadi.

**Turizm tarmoqlarida qo'llanilan innovatsiyalarni baholalash hamda iqtisodiy samaradorlik tahlili**

**1-jadval**

<b>Innovatsiya turi</b>	<b>Tavsif</b>	<b>Iqtisodiy samaradorlikka ta'siri</b>	<b>Baholash (quyi, O'rta, Yuqori)</b>
Amadeus, Galelio, Sabre, va Worldspan.	Mehmonxonalar, aviachiptalar va turistik xizmatlarni onlayn bron qilish tizimlari	Ish unumдорligi oshadi, xarajatlar kamayadi, mijozlar soni ortadi	Yuqori
Sun'iy intellekt va chatbotlar	Mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun AI va chatbotlardan foydalanish	24/7 xizmat ko'rsatish, xarajatlarni tejash, mijozlar qoniqishi oshadi	Yuqori
Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR)	Sayohatni rejalahtirishda 3D turlar va immersiv tajribalar taqdim etish	Turistlar soni oshadi, marketing samaradorligi kuchayadi	O'rta-Yuqori
IoT va aqlii mehmonxonalar	IoT qurilmalari orqali energiya tejash va avtomatlashtirilgan xizmatlar	Samaradorlik ortadi, xarajatlar kamayadi, mijozlarga qulaylik yaratiladi	Yuqori
Blokcheyn texnologiyasi	To'lov tizimlari, ma'lumot xavfsizligi va rezervatsiya jarayonlarini optimallashtirish	Xavfsizlik oshadi, firibgarlik kamayadi, mijoz ishonchi mustahkamlanadi	O'rta
Ekologik innovatsiyalar	Barqaror turizm yo'nalishlari, yashil energiyadan foydalanish	Atrof-muhitga zarar kamayadi, ekologik sayohatlar mashhurligi ortadi	O'rta
Big Data va tahliliy tizimlar	Sayohatchilar xatti-harakatini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan xizmatlar yaratish	Marketologik strategiyalar yaxshilanadi, mijozlar ehtiyojlari aniqroq qondiriladi	Yuqori

Ushbu 1-jadvalda Turistik xizmatlar ko'rsatuvchi korxonaning innovatsion hayotiyligini kompleks baholashni takomillashtirish innovatsion korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir qancha jihatlariga ta'sir qilishi tahlil qilingan.

Innovatsiyalarni amalga oshirish uchun ichki muhitning ustuvor yo'nalishlari korxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati ehtiyojlari va zaxiralariga qarab o'zgaradi. Xizmat ko'rsatish sohasidagi tahlil qilingan innovatsion loyihalarda innovatsiyalarni amalga oshirishning ikkita asosiy yo'nalishi hisobga olingan. Bular ishlab chiqarish va ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy, ishlab chiqarish va iqtisodiy yo'nalishlarning kombinatsiyasi. Ta'kidlash joizki, – mehmonxona biznesi, transport, ko'ngilochar xizmatlarning innovatsion salohiyati g'oyasi faqat resurslar to'plami sifatida shakllangani bilan u sifatga yoki ish ko'lami tezlashishiga tasiri maqsadini hisobga olmaydi. Innovatsiyalar oqimida namoyon bo'ladigan ushbu toifaning xususiyatlari yaratilishi uchun iqtisodiy resurslar oqimi mo'ljallangan mahsulotlar. Mehmonxona biznesi, transport,

ko'ngilochar xizmatlarning asoslangan yondashuvning nomuvofiqligini tan olish yangi manbalarni izlashning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi. Binobarin, innovatsion turistik mahsulotlarga yetarlicha e'tibor berilmaganligi sayyohlarga xizmat ko'rsatish sohasining keskin pasayishiga, turistik korxonalarining narxlari va sifat nisbati bo'yicha xalqaro sayyohlik bozorlarida raqobatdoshligiga olib keladi. Ushbu faoliyatga davlat tomonidan e'tibor kuchayganiga qaramay va ma'lum bir innovatsion texnologiya qanchalik jozibali bo'lmasin, u kelajakda turistik korxona uchun qanchalik samarali bo'lishini taxmin qilmasin, ushbu g'oyani amalga oshirish zarur mablag', ushbu turdag'i turistik mahsulotning paydo bo'lishi xavfi bilan bog'liq. Turizm sohasidagi innovatsiyalarni sifat jihatidan innovatsiyaga ega bo'lgan va hududlarda sohaning barqaror ishlashi va rivojlanishini ta'minlaydigan ijobiy siljishlarga olib keladigan tizimli hodisalar deb hisoblash kerak. Demak, dastlab hatto katta foyda keltirmaydigan turistik loyihamalarini yaratish va amalga oshirish g'oyasi turizmni rivojlantirishga turtki berishi va shu bilan qo'shimcha ish o'rnlari yaratilishiga va aholi daromadlarining ko'payishiga faol hissa qo'shishi mumkin. Innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish uchun turli xil iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarurligi sababli, rivojlanishning innovatsion yo'li innovatsion salohiyat subyektlarining innovatsion faoliyatiziz, shuningdek zaruriy davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasdan va tartibga solinmasdan mumkin emas.

### Tahlil va natijalar.

Innovatsion loyihamalarining iqtisodiy samaradorligini baholash turizm sohasida ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Turizm tarmog'ida innovatsiyalarni boshqarish jarayonida quyidagi holatlarda iqtisodiy samaradorlikni baholash zaruriyati yuzaga keladi:

- Samaradorlik salohiyatini oshirish drayverlarga mos keladigan modellashtirish maqsadlar;

Samaradorlik salohiyatini oshirish drayverlariga mos keladigan modellashtirish – bu tizimlarning optimal ishlashini ta'minlash uchun analitik va hisoblash yondashuvlarini qo'llash jarayonidir. Ushbu modellashtirish strategik qarorlarni qo'llab-quvvatlash, resurslarni samarali taqsimlash va jarayonlarni avtomatlashtirishga qaratilgan. Maqsad – turli drayverlar, jumladan texnologik innovatsiyalar, tashkiliy o'zgarishlar va bozor talablarining samaradorlikka ta'sirini aniqlash va prognoz qilishdir. Statistik tahlil, sun'iy intellekt va optimallashtirish algoritmlaridan foydalanish orqali samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqiladi. Bu yondashuv iqtisodiyot, muhandislik va boshqaruv sohalarida keng qo'llaniladi.

- Xarajatlarni optimallashtirish drayveriga mos keladigan modellashtirish maqsadlari;



**1-chizma. Xarajatlarni kamaytirish bo'yicha modeli.<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

- Printsiplar, talablar va cheklovlar modeli Maqsad uchun "Mehmonlarga axborot ta'siri uchun texnologiyalarni ishlab chiqish;

Raqamli innovatsiyalar va interaktivlik 

Mobil ilovalar va onlayn platformalarni jisht etish 

Ishonchlilik va xavfsizlik 

Mehmonlarga axborot ta'sirini oshirish uchun texnologiyalarni ishlab chiqish 

Mehmonlarning texnologiyaga 

Texnik infratuzilma va texnologik imkoniyatlari tahlili

Mehmonlar uchun to'liq va aniqlik axborot olish imkoniyatini yaratish.

Yangi texnologiyalarni joriy qilish va internet tezligi va sifatini vaxshilash.

## **2-chizma. Printsiplar, talablar va cheklovlar modeli<sup>1</sup>.**

Turizm sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy jarayon bo'lib, u investitsiya strategiyalarini takomillashtirish, xizmat sifatini oshirish va bozor talablariga moslashish imkonini beradi. Loyiha ishlab chiqish bosqichida turli muqobil variantlar shakllanadi va iqtisodiy samaradorlik tahlili orqali eng optimal yechim tanlanadi.

### **Xulosa.**

Amalga oshirilgan loyihalar esa investitsion rentabellik, xizmat sifati va bozor talabiga ta'siri bo'yicha baholanadi. Ushbu tahlillar asosida turizm sohasi uchun innovatsion jarayonlarning istiqboli aniqlanadi. Natijada, resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish va turizm xizmatlarini yanada rivojlantirishga erishiladi. Shunday qilib, turizm sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, uzoq muddatli barqaror rivojlanish va raqobat ustunligini ta'minlash uchun zarur vositadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Divisekera, S.; Nguyen, K. Determinants of innovation in tourism evidence from Australia. Tour. Manag. 2018, 67, 157–167, .
2. Hall, M.C.; Williams, A.M. Tourism and Innovation; Routledge: Abingdon, UK, 2019.
3. Benur, A.M.; Bramwell, B. Tourism product development and product diversification in destinations. Tour. Manag. 2015, 50, 2013–2224.
4. Page, A.L.; Schirr, G.R. Growth and development of a body of knowledge: 16 years of new product development research, 1989–2004. J. Prod. Innov. Manag. 2008, 25, 233–248.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

5. Steven, E.; Dimitriadis, S. New service development through the lens of organisational learning: Evidence from longitudinal case studies. *J. Bus. Res.* 2004, 57, 1074–1084.
6. Menor, LJ; Tatikonda, MV; Sampson, SE Развитие новых услуг: области эксплуатации и разведки. *J. Oper. Manag.* 2002, 20, 135–157.
7. Dinis, M.G.F.; Costa, C.M.M.; Pacheco, O.M.R. Composite Indicators for measuring the online search interest by a tourist destination. In *Big Data and Innovation in Tourism, Travel, and Hospitality Managerial Approaches, Techniques, and Applications*; Sigala, M., Rahimi, R., Thelwall, R., Eds.; Springer: Berlin, Germany, 2019; pp. 1–19
8. Hall, M.C.; Williams, A.M. *Tourism and Innovation*; Routledge: Abingdon, UK, 2019.
9. Page, A.L.; Schirr, G.R. Growth and development of a body of knowledge: 16 years of new product development research, 1989–2004. *J. Prod. Innov. Manag.* 2008, 25, 233–248.
10. Biemans, W.G.; Griffin, A.; Moenaert, R.K. New service development: How the field developed, its current status and recommendations to move the field forward. *J. Prod. Innov. Manag.* 2016, 33, 382–397.